O'YIN MULOQOTI JARAYONIDA BOLALAR NUTQINING GENDER XUSUSIYATLARI

Iskandarova Gulbahor Turabayevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi
gulbahoriskandarova2@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4189-2725
https://doi.org/10.5281/zenodo.23503702

Bolalar nutqining turli muloqot vaziyatlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini kuzatar ekanmiz, ular nutqida fonetik hodisalarning hamda leksik birliklarning jins nuqtayi nazaridan farqlanishi diqqatimizni tortadi. Ma'lumki, muloqot muhitida muloqotga kirishuvchi 3-4 yoshdagi bolalar kommunikantlarni jinsiga qarab ayirmaydilar, balki o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham har ikkala jins vakillari bilan teng muloqotda bo'ladilar. Bu holat faqatgina ba'zi o'yinlar chog'ida o'zgarishi mumkin, chunki faqat o'g'il bolalarga xos shunday o'yinlar borki, ularni, odatda, qiz bolalar o'ynashmaydi va, aksincha, ayni shu manzara sof qizlar o'yinlarida ham kuzatiladi. Bu vaziyatni kengroq ko'rib chiqamiz.

Qizlar o'yinlari nisbatan tor doirada, ya'ni kam sonli ishtirokchilar bilan o'ynaladigan syujetli–rolli o'yinlar bo'lgani uchun bunday o'yinlarda agressivlik holati kam, ular o'yin ishtirokchilarida birdamlik tuyg'usini rivojlantirishga monand o'yinlardir. Bu o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra katta yoshdagilarning ijtimoiy hayotlariga taqlid sifatida qaralishi ham mumkin. O'g'il bolalar o'yinlari nisbatan katta guruhlarda o'z individual xususiyatini namoyon qilishga, raqobatbardoshlilik fazilatini shakllantirishga qaratilgan. O'g'il bolalar erta mustaqil bo'lishga intilishadi: ular o'z "shaxsiyatini" alohida ajratgan holda tengdoshlaridan, tarbiyachilardan, qolaversa, onalaridan ajralishga, erkin bo'lishga harakat qiladilar. Xarakterning gender jihatdan bunday xoslanishi nutqda ham o'z ifodasini topadi. O'g'il bolalar nutqi axborot mazmunidagi informativ elementlarga boy bo'lsa, qiz bolalar nutqi his-hayajonli ifodalar, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi birliklarning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Ye.R.Slobodskayaning fikricha, bunday tendensiyalar 3 yoshli bog'cha tarbiyalanuvchilari xulqida ham kuzatilgan. Bolalar nutqida jinsiy o'ziga xoslikning bunday erta qayd qilinishi bu fenomenda genetik omilning namoyon bo'lishi masalasini ko'ndalang qo'yadi. Bizning kuzatuvimiz bo'yicha, kichik yoshli bolalar nutqiy muloqot chog'ida (agar muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi masofa bir metrdan yaqin bo'lsa) o'g'il bolalar ko'proq o'g'il bolalar bilan, qizlar esa har ikkala jins vakillari bilan baravar kommunikativ aloqaga kirishishlari mumkin.

Bolalar o'zlariga kommunikant tanlashda yosh, jins va boshqa xulqiy modellarga tayanadilar. Masalan, qizlar muloqotga kirishuvchilarni tashqi ko'rinishiga, axloqiy xususiyatlariga qarab tanlashsa, o'g'il bolalar jamoada faol bo'lishiga va alohida natijalar ko'rsata olishiga e'tibor beradilar. Har ikkala jins bolalari asosan syujetli-rolli o'yinlar chog'ida birga qo'shilgan holda o'ynashlari mumkinligi psixolog olimlar tomonidan aniqlangan. Kichik maktab yoshidagi bolalar jinsiy konsolidatsiyasi maktab davrida ham katta farq qiladi: 91% bolalar o'z jinsdoshlari bilan kommunikant bo'lsalar, faqat 9%igina qarama qarshi jins vakillari bilan nutqiy aloqaga kirishadilar. Bolalar tomonidan o'ynaladigan barcha o'yin va mashg'ulotlar turini shartli ravishda 100% deb olsak, shundan 75%i faqat bir jins bolalari o'rtasida olib borilishini kuzatamiz.

I.V.Telnyuk qayd qilishicha, bir jinsdagi bolalarning o'yin chog'idagi situativ suhbatlari nisbatan davomli hamda ayni holat uchun ma'lum ma'noga ega. Bunday vaziyatda o'zaro tushunmovchilik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

holatlari kam uchraydi. O‘g‘il bolalar o‘yin vaziyatida o‘ziga xos “erkakcha” muloqot elementlarini qo‘llaydilar, masalan, ular nutqida turli film qahramonlarining nomi (“Jumong”, “Pokemon”), ularning so‘zlari (“Sava”, “voy-voy-voy-voy-ee”), tasavvur qilingan qurollardan o‘qtalish (“qo‘lingni ko‘tar, otaman!”) va ular tovushlariga beixtiyor taqlid qilish (“paq-paq”), ba’zan so‘kinishi va qo‘pol so‘zlarni ishlatishi ham mumkin. Ko‘rinib turibdiki, o‘g‘il bolalar nutqida o‘yin vaziyatida asosan ularning kundalik hayotidan tashqaridagi, xayoliy olam qahramonlari bilan bog‘liq so‘zlar faol ishtirok etadi. Qiz bolalar nutqida esa, aksincha, hayotiy, kundalik turmush tarzida keng qo‘llanuvchi turli ijtimoiy so‘zlar faolligi kuzatiladi, chunki qizlarning o‘yinlari ham ijtimoiy rolli o‘yinlarni tashkil qiladi: “mehmon-mehmon”, “do‘xtir-do‘xtir”, “bozor-bozor” va shu kabi. Bu tajribalar asosida to‘plangan misollardan ham ma’lum: kichik yoshli qizchalar ona rolini o‘ynaganida xuddi onalari kabi gapirishga, xatti harakatlarini ifodalashga urinadilar. Bu esa, o‘z navbatida, qizlarning o‘g‘il bolalarga nisbatan muloqotga kirishuvchan bo‘lishlariga imkon beradi.

O‘yin muloqot muhitida bolalar tomonidan qo‘llanuvchi turli kinematik belgilar (kommunikativ ma’no ifodalovchi imo-ishora yoki xatti harakatlar) har ikkala jins vakillarida ham rang barangligi va o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, qizlar o‘yin xususiyatidan kelib chiqib, nisbatan sokin yoki mayin harakatlar qiladilar, ba’zan ular o‘g‘il bolalarga xos qo‘pol harakatlar qilishlari ham kuzatiladi. Ayni vaqtda o‘g‘il bolalarda o‘yin xususiyatidan qat’i nazar qizlarga xos mayinlik va sokinlik kuzatilmaydi, ularning kinematik ifodalari-da tezkorlik va aniqlikka asoslangan bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd qilish mumkinki, o‘yin muloqot muhitida bolalar nutqi gender jihatdan o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbek qizlari va o‘g‘il bolalari nutqidagi va noverbal ifodalaridagi farqlar ularning nafaqat jinsiy xosligidan, balki muloqot muhitining va o‘yin vaziyatidagi jinsiy xosliklarning xususiyatidan ham kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Белянин В.П. Психолингвистика. - Москва: Флинта. Московский психолого-социальний институт. 2003.
2. Eagly A.H. Sex differences to social behavior: A social-role interpretation. – Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1987. – P. 238.
3. Горошко Е. И. Особенности мужского и женского вербального поведения. Дисс. …канд. филол. наук. – М., 1996. – С. 179.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.
5. Kebaytuli G., Iskandarova G. O‘zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Beijing, 2016. - B. 278.
6. Леонтьев А.Н. Психология общения. – Москва, 1978. Стр. 281.
7. Şimşek B. Kadinlararasi konuşma sürecinde toplumsal cinsiyetin dil üzerinden sergilenmesi. – Ankara, 2006. – P. 236.
8. Shirinova, Y., Iskandarova, G. Inson – madaniyatlar chorrahasida // O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5), 2024. B. 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79
9. Тельнюк И.В. Индивидуально-дифференцированный подход к организации самостоятельной деятельности девочек и мальчиков 4-5 лет в детском саду. – СПб., 1999. – С. 188.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.